

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

NORBEKOV SHOHZOD MAMARASUL O‘G‘LI

**TABIIY TOLALARNING YARIMO‘TKAZGICH XUSUSIYATLARINI
TADQIQ QILISH VA ULAR ASOSIDA DISKRET ASBOBLAR
YARATISHNI TAVSIYA QILISH**

01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
physical-mathematical sciences**

Norbekov Shohzod Mamarasul o'g'li

Tabiiy tolalarning yarimo'tkazgich xususiyatlarini tadqiq qilish va ular asosida diskret asboblar yaratishni tavsiya qilish..... 3

Норбеков Шохзод Мамарасулович

Исследование полупроводниковых свойств природных волокон и рекомендации по созданию дискретных приборов на их основе..... 23

Norbekov Shokhzod

Investigation of the semiconductor properties of natural fibers and recommend the creation of discrete devices based on them..... 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 47

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

NORBEKOV SHOHZOD MAMARASUL O‘G‘LI

**TABIIY TOLALARNING YARIMO‘TKAZGICH XUSUSIYATLARINI
TADQIQ QILISH VA ULAR ASOSIDA DISKRET ASBOBLAR
YARATISHNI TAVSIYA QILISH**

01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/FM819 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ispm.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyo.net) joylashtirilgan.

Ilmiy raxbar:

Mamadalimov Abdug'afur Teshabaevich
fizika-matematika fanlari doktori, akademik

Rasmiy opponentlar:

Zikrillayev Nurilla Fatxullayevich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Sharibayev Nosirjon Yusupjanovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Yadro fizikasi instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «26» 07 soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100057, O'zbekiston, Toshkent sh., Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy, Tel.: (+99871)248-79-94, faks: (+99871)248-79-92, e-mail: info@ispm.uz)

Dissertatsiya bilan institutning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (63 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100057, O'zbekiston, Toshkent shahri, Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy. Tel.: (+99871) 248-79-59; e-mail: info@ispm.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «11» 07 kuni tarqatildi.
(2024 yil «11» 07 dagi 63 raqamli reestr bayonnomasi).



Sh.B. Utamuradova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

J.J. Hamdamov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, k.i.x.

N.A. Turgunov
Ilmiy darajalar beruvchi, ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, f.-m.f. d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi. Jaxonda bugungi kunda jadal rivojlanayotgan yarimo'tkazgichlar fizikasi sohasida dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lgan tabiiy yarimo'tkazgichlarning fizikaviy xossalari aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini bajarishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Dunyo miqyosida tabiiy yarimo'tkazgich tolalarni keng miqyosda va kompleks tadqiq qilish yangi fizikaviy qonuniyatlarini namoyon qilish va ular asosida elektron texnikani juda ilg'or yangi diskret elementlarini yaratish va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi.

Bugungi kunda jaxonda tabiiy yarimo'tkazgichlardagi fizik jarayonlarni tadqiq qilishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ayniqsa nanofizika sohasida tabiiy tolalarning o'rni alohida ahamiyatga ega. Shu jihatdan bu yo'nalishda eng muhim vazifalardan biri quyidagi maqsadli ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish: tabiiy yarimo'tkazgichli tolalarning fundamental parametrlarini aniqlash; tabiiy yarimo'tkazgichli tolalarga kimyoviy, termik va radioaktiv ishlov berish orqali uning elektrofizik, fotoelektrik va optik xususiyatlarining samaradorligini oshirish; elektro'tkazuvchanlikni haroratga va yorug'lik spektriga bog'liqlik qonuniyatlarini namoyon qilish; legirlangan yarimo'tkazgichli paxta va bambuk tolalarini elektr o'tkazuvchanligini legirlash vaqti va haroratga bog'liqlik qonuniyatlarini aniqlash; elektron texnikani yangi elementlarini yaratish; har xil tabiiy yarimo'tkazgichli tolalarda kechadigan elektron jarayonlarning mexanizmlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Respublikamizda ilmiy tadqiqotchilar tabiiy tolalarning fizik samaradorligini yanada oshirish ustida ishlamoqdalar. Bu borada yangi turdagi tabiiy yarimo'tkazgich tolalarni yaratish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan bambuk va paxta tolalari asosidagi yarimo'tkazgich materiallarning optimal elektrofizik, fotoelektrik va optik xususiyatlarini hisobga olganda arzon va ekologik toza materialdan biri hisoblanadi. Tabiiy tolalardan passiv hamda aktiv elementlarni o'z ichiga olgan "Aqlli kiyim texnologiyasi" (Smart Clothing Technology) to'qimachilik sxemasini amalga oshirish imkoniyatini ko'rsatadi. Bu kelajakda elektronika va to'qimachilik o'rtasida integratsiyaga yo'l ochadi. Adabiyotlarda tabiiy tolalarning fizik xususiyatlarini tadqiq etish bo'yicha ma'lumotlar juda kam va ularning elektrofizik qonuniyatlar bilan bog'liq ko'plab hal qilinmagan muammolar mavjud.

Ushbu dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-martdagi "Elektrotexnika va elektronika sanoatini yanada rivojlantirish va mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5011-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 martdagi «Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PQ-5032-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy

hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertasiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining III. «Energiya, energiya resurslarini tejash, transport, mashinasozlik va asbobsozlik; zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika, elektron asbobsozlikni rivojlantirish» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi: Kimyoviy va termik ishlov berilgan tabiiy tolalarning elektrofizik va optik xossalarini ilmiy tadqiq qilish bir qator xorijiy rivojlangan mamlakatlarning ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarida olib borilmoqda. Jumladan, tabiiy paxta tolalarida organik elektronika AQSHning Kornel universiteti olimi P.Hinestoroza, Italiyaning Boloniya universiteti olimi F.Beatrice va Fransiyaning Provans mikroelektronika markazi olimi G.Malliaras tomonidan o‘rganildi.

Tojikiston davlat milliy universitetida A.Akobirova, S.Misriyon, Sh.Tuychiev, A.Aloviddinovlar tomonidan C₆₀ fullerenlarni tabiiy tolalarning elektr o‘tkazuvchanligiga ta’siri o‘rganildi.

O‘zbekistonlik olimlar, jumladan, akademiklar P.K.Habibullaev va A.T.Mamadalinov tomonidan dunyoda birinchi marta paxta va ipak tolalarining yarimo‘tkazgichli xususiyatlari namoyon qilingan. Professorlar A.S.Zakirov, Sh.U.Yuldashev, J.J.Hamdamiyov va boshqalar tomonidan yarimo‘tkazgichli tabiiy tolalarning elektrofizik va optik xususiyatlari tadqiq qilindi va turli yarimo‘tkazgichli qurilmalarni yaratish ko‘rsatildi.

Elektrofizik va optik xususiyatlarini o‘rganish ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarning keng imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Ammo shu paytgacha tabiiy nanostrukturali yarimo‘tkazgich tolalarining elektrofizik va optik xususiyatlari, shuningdek umumiy fizik qonunlari haqida hali ham ma’lumot yetarli emas.

Dissertatsiya mavzusining bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalar agentligi grantlarining tematik planlariga mos ravishda M.Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot rejasining: OT-F2-29 “Tabiiy tolalarning fizik xossalariga tashqi faktorlarni ta’sirini o‘rganish”(03.01.2017-31.12.2020 yy.) mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tabiiy yarimo‘tkazgichli bambuk hamda paxta tolalarining elektrofizik va optik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

KMnO₄ va yod bilan legirlangan bambuk tolalari hamda “Komolot-79” va “Xorazm-150” navli paxta tolalarining fotoo‘tkazuvchanlik spektrini, elektr o‘tkazuvchanlikning haroratga bog‘liqlik qonuniyatini, shuningdek taqiqlangan zonadagi diskret energetik sathlarni aniqlash;

γ -⁶⁰Co nurlanish manbaida nurlantirilgandan keyin yod bilan legirlangan paxta va bambuk tolalarining elektrofizik xususiyatlariga tashqi omillarning ta’sirini aniqlash;

tabiiy yarim o'tkazgichli paxta va bambuk tolalarining fotoo'tkazuvchanlik kinetikasini aniqlash;

kimyoviy, termik va radioaktiv ishlov berilgan paxta va bambuk tolalari namunalarining xususiyatlarini aniqlash;

“Komolot-79” va “Xorazm-150” navli paxta tolalarining fotoluminesensiya spektrini aniqlash;

tabiiy paxta va bambuk tolalar asosida datchiklar yaratishni tavsiya qilish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida bambuk tolalari, “Komolot-79” va “Xorazm-150” navli paxta tolalari olingan.

Tadqiqotning predmeti bambuk va paxta tolalarining elektro'tkazuvchanlikning haroratga bog'liqligini, fotoo'tkazuvchanlik va fotoluminesensiya spektrlarini o'rganish hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Ilmiy ishni bajarish jarayonida IQ-spektroskopiya, paxta va bambuk tolalarining chuqur satxdagi ionlashuvchi energiyasini, haroratning elektr o'tkazuvchanligiga bog'liqligi, fotoelektr o'tkazuvchanlik spektrini, spektrofotometrik analiz va fotoluminesensiya spektrini yuqori aniqlik bilan o'lchashga imkon beradigan zamonaviy usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yod bilan legirlangan bambuk tolalaridan va “Komolot-79” navli paxta tolalaridan o'tayotgan tok qiymati harorat ortishi bilan eksponensial qonuniyat bo'yicha ortishi va aktivatsiya energiyalari mos ravishda $E_{t1}=E_c-0,57$ eV va $E_{t2}=E_c-0,83$ eV ekanligi aniqlangan;

ilk bor $\lambda=254$ nm to'lqin uzunlikdagi yorug'lik bilan yoritilganda ($h\nu \geq E_g$) yod bilan legirlangan bambuk tolalarida fotoo'tkazuvchanlikning uzoq muddatli (250 s) relaksatsiyasi aniqlangan va ularning klassik zona diagrammasi tavsiya qilingan;

ilk bor yod bilan legirlangan “Xorazm-150” navli paxta tolalari namunalarida manfiy fotoo'tkazuvchanlik fenomeni qayd qilingan;

ilk marotaba “Xorazm-150” navli paxta tolalarini $KMnO_4$ bilan 80 °C haroratda 1, 3 va 6 soat davomida legirlangan va ushbu legirlash vaqti ortishi bilan tolalarning elektro'tkazuvchanligi nochiziqli ortishi aniqlangan;

ilk bor γ - ^{60}Co bilan nurlantirilgan bambuk tolalari va “Komolot-79” navli paxta tolalarining elektro'tkazuvchanligi γ nurlanish dozasiga bog'liqligi aniqlangan va $1,2 \cdot 10^6 \div 28,4 \cdot 10^6$ ren diapazonidagi radioaktiv nurlanish tabiiy tolalarda Frenkel nuqsonlarini hosil qilishi aniqlangan;

ilk bor $KMnO_4$ bilan legirlangan bambuk tolalari uchun aktivatsiya energiyasi $E_{t1}=1,05$ eV, “Xorazm-150” navli paxta tolalari uchun esa $E_{t2}=0,54$ eV ga tengligi hamda ushbu tolalardan 80 V kuchlanishda o'tayotgan tok harorat ortishi bilan eksponensial qonun bo'yicha ortishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tabiiy yarimo'tkazgich tolalarini o'rganish uchun namuna tayorlash, kimyoviy, termik va radioaktiv ishlov berish hamda omik kontaktlarni olish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

tabiiy yarimo'tkazgichli bambuk va paxta tolalari asosida havo va boshqa ob'ektlarning nisbiy namligini o'lchash imkonini beruvchi namlik datchigi shuningdek tolalarni termik, kimyoviy va radiaktiv nur bilan ishlov berish orqali

elektrofizik xususiyatlarini boshqarish va bu natijalar asosida aqlli kiyim aktuatorlari (smart clothing actuators) sifatida qo'llash mumkinligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi raqamli yuqori sezuvchanlik va aniqlikka ega bo'lgan tadqiqot usullaridan foydalanish, shuningdek turli usullarga ("Cary Eclipse Fluorescence Spectrometer", "Bruker Invenio S-2021 Fourier transformator spektrometr", "Eye-One Pro mini-spektrofotometr") tayangan holda olingan natijalarning bir necha bor takroran olinishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, tabiiy yarimo'tkazgichli bambuk va paxta tolalarining fizikaviy qonuniyatlarini ochib beradi. Olingan natijalar tabiiy tolalarning fizik xususiyatlariga oid nazariy bilimlarni kengayishiga olib kelishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, yarimo'tkazgichli xususiyatga ega bo'lgan yangi polimer materiallar aniqlanganligi va ushbu material orqali turli ob'ektlarning nisbiy namligini o'lchash uchun namlik datchiklarini yaratishda hamda magistratura va bakalavriat ta'lim jarayonida qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Paxta va bambuk tolalarining yarimo'tkazgich xossalarini o'rganish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Paxta tolalarining radioaktiv, kimyoviy va termik ishlov berilishi tufayli olingan noyob fotosezgirlikka egaligi hamda haroratning o'zgarishi jarayonida elektro'tkazuvchanlik gisterезisi yo'qligi kabi noyob ilmiy natijalardan «FOTON» AJ da tayyorlangan yarimo'tkazgich elektron namunalardan foydalanish uchun sinovdan o'tkazilgan ("O'zeltexsanoat" aktsiyadorlik kompaniyasining 2023-yil 18-sentyabrdagi №-04-3/1234-son ma'lumotnomasi). Keltirilgan ilmiy natijalardan foydalanish natijasida tajribaviy namunalardan elektron sxema tuzishda, harorat va yorug'likka sezgir elementlar ishlab chiqarishga tavsiya berilgan;

dissertatsiya doirasida ishlab chiqilgan texnologik rejimlar asosida radioaktiv va kimyoviy ishlov berilib, yod hamda $KMnO_4$ bilan legirlangan seluloza tolalaridan Namangan muhandislik-qurilish institutida bajarilgan OT-F2-70 raqamli "Kuchli elektromagnit maydondagi nano o'lchamli yarimo'tkazgich parametrlariga harorat, deformatsiya va yorug'lik ta'siri" mavzusidagi loyixaning ilmiy texnikaviy vazifalarini bajarishda, jumladan loyixa doirasida qizdiruvchi o'ta yuqori chastotali elektromagnit maydonda gomo va geterostrukturalar ilk marta olinib, ularning elektrofizik va fotoelektrik xossalarini o'rganishda qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-dekabrdagi №-4/17-13/0-09-1142-son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish ushbu materiallar asosida qizdiruvchi o'ta yuqori chastotali elektromagnit maydonda gomo va geterostrukturali noyob elektrofizik va fotoelektrik xossalariga ega bo'lgan materiallarni olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 9 ta, jumladan 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida taqdim qilinib muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 3 tasi xorijiy va 2 tasi mahalliy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rt bob, xulosa, e'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 106 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusi bo'yicha turli tadqiqotchilar tomonidan olingan natijalar tahlili keltirilgan, dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan, ob'ekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, ularning ishonchliligi asoslangan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ishlanmalarni amaliyotga joriy qilish, ishning aprotatsiyasi natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tabiiy tolalarning fizik xossalari bo'yicha adabiyotlar sharxi”** deb nomlangan birinchi bobida bambuk va paxta tolalarining fizikaviy xossalari, kimyoviy tuzulishi va polimer material sifatida foydalanishning hozirgi holati tahlil etilgan. Mavjud nazariy va tajribaviy ma'lumotlar tahlili asosida tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Ishni bajarishda va tadqiqot vazifalarida belgilangan ilmiy izlanishlar quyidagilardan iborat: yod va $KMnO_4$ bilan legirlangan bambuk va paxta tolalarining fotoo'tkazuvchanligi va elektro'tkazuvchanlikni haroratga bog'liqligini aniqlash; yarimo'tkazgichli bambuk va paxta tolalarining fotoo'tkazuvchanlik spektrini aniqlash, diskret energetik sathlarni aniqlash va legirlovchi elementlarning fotoo'tkazuvchanlik spektriga ta'sirini aniqlash; paxta tolalarining fotoluminesensiya spektrini aniqlash;

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotlar olib borish uchun namunalar tayyorlash texnologiyasi va o'lchash usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tabiiy tolalardan namunalar tayyorlash, tabiiy paxta va bambuk tolalariga kimyoviy, radioaktiv va termik ishlov berish usullari, tabiiy tolalarning elektrofizik, fotoelektrik va optik xususiyatlarini tadqiq qilish metodlari va qurilmalar tavsifi bayon qilingan:

Tadqiqotlar o'tkazish uchun o'rta yoshdagi tabiiy sharoitda yetilgan bambuk poyasidan tola yo'nalishida ($4 \times 2 \times 0.8 \text{ mm}^3$) namuna tayyorlandi. Bambuk tolasidan (BT) tayyorlangan namuna 75°C distillangan suv bilan yuvildi. Yuvilgan namunalar xona haroratida 24 soat davomida quritildi. BT yod bilan legirlash uchun xona haroratida yodning 7% spirtidagi eritmasi bo'lgan vannada namunalar 15 min davomida shimdirildi. Yuzaga qoplanga yodni tolaga diffuziya qilish uchun $75\text{-}80^\circ\text{C}$ haroratli havo kamerasida tadqiqot vazifasiga qarqab turli vaqtlarda (1-8 soat)


diffuziya qilindi. Bambuk tolasini KMnO_4 bilan legirlash uchun ham yuqoridagi jarayondan foydalanildi. KMnO_4 1.5% etalonda suvdagi eritmasidan foydalanildi.

Paxta tolasidan (PT) namuna tayyorlash ham deyarli yuqoridagi tartib va sharoitda amalga oshirildi. Faqat yuvishgacha bo'lgan jarayon farq qiladi. Dastavval, pishib yetilgan paxta chigitidan tolalar tekis jism ustida parallel yo'nalishda yotqizib olindi va maxsus taroq yodamida tola yo'nalishida taraldi. Parallel joylashgan tolalarning taxminiy soni 4500-5000 dona va uzunligi 4 mm bo'lgan holatda kesib olindi.

Paxta va bambuk tolalariga kimyoviy ishlov berildi ya'ni, mersefizatsiya qilindi. PT yuvilgandan so'ng 20% NaOH suvdagi eritmasi solingan vannada 18°C haroratda 2 minut davomida ushlab turildi. Vannadan chiqarilgandan so'ng kimyoviy bog' hosil qilmagan ortiqcha NaOH distillangan suv bilan to'liq yuvib tashlanadi va namunalar standart sharoitda quritiladi. Bu jarayon sellyuloza matritsasining ikkita barqaror bo'lmagan OH bog'idagi vodorodni siqib chiqarib H o'rnini Na egallaydi va jarayonda H_2O ajralib chiqadi. Ushbu hodisa sellyuloza tolasining tashqi tasirlarga barqarorligini va kiritma kiruvchanligini oshiradi. Bambuk tolasini sellyulozasining OH bog'i harakatchanligi juda past bo'lganligi uchun mersefizatsiya vaqti 5 minutga oshirilgan.

Yuvilgan paxta va bambuk tolalari turli vaqtlar davomida ya'ni, 1 minutdan 120 soatgacha bo'lgan vaqt oralig'ida 65.73 ren/s dozadagi $\gamma\text{-}^{60}\text{Co}$ nuranish manbai bilan radioaktiv ishlov berildi.


Dissertatsiyaning "**Bambuk tolalarining fizik xossalarini tadqiq qilish**" deb nomlangan uchinchi bobida ilgari tadqiq qilinmagan KMnO_4 va yod bilan legirlangan bambuk tolalarining fizikaviy xususiyatlarini o'rganish natijalari keltirilgan.



1-rasm. Yod bilan legirlangan (1), KMnO_4 bilan legirlangan (2) va legirlanmagan (ichki grafik) BT namunalaridan o'tayotgan elektr tokining haroratga bog'liqligi.


1-rasmda yod va KMnO_4 bilan legirlangan BT namunalariga doimiy $U=80 \text{ V}$ kuchlanish quyilganda o'tayotgan elektr tokining haroratga bog'liqligi keltirilgan (harorat diapazoni $20\text{-}80^\circ\text{C}$). Namunalar orqali o'tayotgan elektr toki harorat ortishi bilan eksponensial qonuniyat bo'yicha ortishi kuzatildi.

Arrhenius qonuniga asoslangan $10^3/T$ nisbatdagi harorat funksiyasi grafigining chiziqli qismidan olingan aktivatsiya energiyasi mos holda $E_{a1}=0,57$ eV, $E_{a2}=1.05$ eV, $E_{a3}=0.82$ eV ekanligi aniqlandi. Ushbu namunalarning volt-ampere xarakteristikalarini (VAX) tadqiq qilindi. Tadqiqotlar normal sharoitda, qorong'uda va $\lambda=254$ nm to'liq uzunlikdagi nur ostida olib borildi. Namunalarga kiritma kiritish orqali o'tkazuvchanlik oshganligi kuzatildi (2-rasm). Shuningdek, $KMnO_4$ bilan legirlangan BT $\lambda=254$ nm to'liq uzunlikdagi nur ostida statsionar holatga erishilgandan so'ng VAX olindi. Ultra binafsha (UB) nur bilan yoritilgan namunadan o'tayotgan tok $U=100$ V o'zgarish kuchlanishida 6.1 nA dan 10.2 nA gacha oshdi, ya'ni ichki fotoeffekt kuzatildi (2-rasm. b-chiziq).




2-rasm. Legirlanmagan (1) va yod bilan legirlangan (2) shuningdek $KMnO_4$ bilan legirlangan (ichki rasm) BT, qorong'uda (a) va UB nur ($\lambda=254$ nm) ostida (b)

Yod bilan legirlangan BT fotoo'tkazuvchanlik kinetikasi tekshirildi (3-rasm). Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, UB nur ($\lambda=254$ nm) bilan yoritilganda fototokning eksponensial o'sishi va UB nur o'chirilganda fotoo'tkazuvchanlikning uzoq muddatli relaksatsiyasi kuzatildi. Bunda ichki fotoeffekt hodisasi namayon bo'lganligi qayd qilindi. Fotoo'tkazuvchanlikning statsionar qiymatiga bir zumda erishilmaydi ya'ni, yarimo'tkazgichga yorug'lik ta'siri boshlanganidan keyin ma'lum vaqt o'tgach to'yinish qiymatiga erishiladi (3-rasm).



3-rasm. Xususiyy optik o‘tish bilan bog‘liq bo‘lgan, yod bilan legirlangan BT fotoo‘tkazuvchanlik kinetikasi

Yod bilan legirlangan BT fotoo‘tkazuvchanlik spektri (FO‘) (yorug‘lik spektri energiya diapazoni 0,26 eV dan 3,5 eV gacha) tadqiq qilindi (4-rasm). Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, namuna qorong‘ida uzoq vaqt (1.5 soat) ushlab turilgandan keyin yorug‘lik spektri $h\nu=0,57$ eV dan boshlab fotoo‘tkazuvchanlik sezilarliy darajada orta boshlagani kuzatildi. Foton energiyasi ortib borishi bilan maksimal $h\nu=2,28$ eV da kuzatildi va yorug‘lik nurining spektri taxminan $h\nu=2,85$ eV ga yetganda yana bir tok ortishi kuzatildi. Ushbu FO‘ spektrini BT taqiqlangan zona oralig‘ining yuqori yarmida chuqur donor sathi mavjudligi bilan tushuntirish mumkin (4 va 5-rasm).




4-rasm. Yod bilan legirlangan BT fotoo‘tkazuvchanlik spektri

qilgan taqdirdagina amalga oshadi. Yod taqiqlangan zona oralig‘ining yuqori yarmida chuqur donor sath hosil qiladi deb faraz qilsak, FO‘ spektrining boshlanishi ($h\nu=0,57$ eV) BT tarkibidagi yodning ionlanish energiyasi, taqiqlangan zona kengligida $E_c-0,57$ eV chuqur sathni hosil qilganligi bilan bog‘liq. Agar yod bilan legirlangan BT n-tipli o‘tkazuvchanlikka ega ekanligini hisobga olsak, u holda

Bu shuni ko‘rsatadiki, ushbu BT namunasining fotoo‘tkazuvchanligi asosan zonalararo va zonalar orasidagi energetik sathlarda elektron-teshik juftligini hosil qilish jarayoni bilan bog‘liq. Agar yarimo‘tkazgichlarning klassik zonalar modelidan foydalansak, BT uchun yuqoridagi fotoo‘tkazuvchanlikni quyidagicha tushuntirish mumkin. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, BT namunasini yod bilan legirlash fotosezgirlikni oshiradi. Bu faqat yod BT namunasining taqiqlangan zona oralig‘ida chuqur sath hosil

$E_t = E_c - 0,57$ eV bo'lgan sath, taqiqlangan zona kengligining yuqori yarmida joylashgan deb taxmin qilish mumkin. FO' spektri tahlili $E_t = E_c - 0,57$ eV bo'lgan sath donorlik xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. $0,57 \leq h\nu \leq 2,28$ eV sohasida FO' monoton o'sishi elektronlarning E_t sathidan C-zonasiga o'tishi bilan bog'liq (5-rasm 1-o'tish). Fotoo'tkazuvchanlikning $h\nu \geq 2,28$ eV dan boshlab yana o'sishi elektronlarning V-zonadan E_t sathga o'tishi bilan bog'liq (2-o'tish). Fototokning $h\nu = 2.85$ eV dan boshlanadigan o'sishi elektronlarning V-zonadan to'g'ridan to'g'ri C-zonaga o'tishi bilan bog'liq (3-o'tish). Olingan natijalarni chuqur sath mavjud bo'lgan kremniyning umumiy qabul qilingan ma'lumotlar bilan solishtirganda, BT optik taqiqlangan zona kengligining qiymati $E_g = 0,57 + 2,28 = 2.85$ eV ga teng ekanligi kelib chiqadi (ushbu qiymat BT spektrofotometrik analiz taxlili bilan ham tasdiqlangan 9-rasm).

Texnologik nuqtai nazardan legirlangan BT UB va ko'rinadigan nur diapazonini qayd qiladigan fotodetektor ekanligini ko'rsatadi. Legirlanmagan BT namunalarining o'tkazuvchanlik qiymatlari juda past bo'lgan va UB nur ta'sirida juda kam miqdorda fotosezgirlik kuzatilgan.




5-rasm. Yod bilan legirlangan BT zona diagrammasi

Yod bilan legirlangan BT namunasida fotoo'tkazuvchanlikning nomoyon bo'lishi, yod molekullari va polimer zanjiri o'rtasida fotoinduksiyalangan zaryad almashinuvi bilan izohlanadi.

6-rasmda 65,73 ren/s miqdordagi nurlanish manbaiga ega bo'lgan γ - ^{60}Co nurlanish manbai bilan $1,2 \cdot 10^6$ ren, $2,8 \cdot 10^6$ ren, $5,7 \cdot 10^6$ ren, $28,4 \cdot 10^6$ ren miqdorda nurlantirilgan BT


namunalarining VAX ko'rsatilgan. Barcha namunalarning geometrik o'lchami va massasi bir xil. Sof BT namunasi (a chiziq), legirlanmagan faqat γ - ^{60}Co nurlanish manbasi bilan mos ravishda $1,2 \cdot 10^6$ ren, $2,8 \cdot 10^6$ ren, $5,7 \cdot 10^6$ ren, $28,4 \cdot 10^6$ ren miqdorda nurlantirilgan (b, c, d, e chiziq) namunalari bilan solishtirilgan.



6-rasm. γ - ^{60}Co nurlanish manbasi bilan ishlov berilgan BT VAX


Natijalarga ko‘ra, γ -nur bilan ishlov berilgan namunalarning o‘tkazuvchanligi, nur dozasi ortishi tartibida kam miqdorda ortgan. Birinchi 5 soatlik nurlanish dozasidan keyingi dozlarda yuqori sezilarliy darajada ortmaganligi kuzatildi. Ammo turli dozalarda γ -nur bilan ishlov berilgan va yod bilan legirlangan namunalarda buning aksi kuzatildi. 6-rasmda ishlov berilmagan (1-a), yod bilan legirlangan (2) va mos ravishda γ - ^{60}Co nurlanish manbasi bilan $1,2 \cdot 10^6$ ren, $2,8 \cdot 10^6$ ren, $5,7 \cdot 10^6$ ren, $28,4 \cdot 10^6$ ren miqdorda nurlantirilgan hamda yod bilan legirlangan (3), (4), (5), (6) chiziqlar. Natijalarga ko‘ra, faqat yod bilan legirlangan namunadan o‘tayotgan tok 100 V kuchlanishda $I=8,9$ nA ni tashkil qilgan va radiaktiv ishlov berilgan namunalarda esa nurlantirish dozasiga bog‘liq holda $I=56$ nA gacha tok o‘tganligi kuzatildi.

γ -nur bilan ishlov berilgan va yod bilan legirlangan BT FO‘ spektri o‘rganildi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, FO‘ uzun to‘lqin chegarasi $h\nu=0,46$ eV da joylashgan bo‘lib, bu elektr o‘tkazuvchanligining haroratga bog‘liqligidan olingan ionlanish energiyasiga yaxshi mos keladi. Fototok $h\nu=2,39$ eV spektrda ham ma‘lum miqdorda ortganligi namunada ikkilamchi optik o‘tish kuzatilganligini tasdiqlaydi. $h\nu=2,85$ eV da esa keskin ortganligi kuzatildi. BT tarkibidagi yod $E_t=E_c-0,46$ eV chuqur donor sathni hosil qiladi va BT taqiqlangan zona energiya miqdori $E_g=0,46+2,39=2,85$ eV ga teng ekanligini tasdiqlaydi (7-rasm).




7-rasm. γ -nur bilan ishlov berilgan va yod bilan legirlangan BT fotoo‘tkazuvchanlik spektri

BT taqiqlangan zona kengligi miqdorini spektrofotometrik analiz orqali aniqlandi. Zonalararo o‘tish energiyasining qiymatini olish uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri optik o‘tishlar koordinatalarida Kubelka-Munk va Tauc yondashuvlari yordamida aniqlangan yutilishning spektral bog‘liqligidan foydalanildi (8-rasm). Sof BT uchun $h\nu-(F(R)h\nu)^2$ bog‘liqligini ekstrapolyatsiya qilish orqali topilgan taqiqlangan zona qiymati $E_g \approx 2,85$ eV ga teng ekanligi aniqlandi. Bu esa BT tolalarining yarim o‘tkazgich xossasiga egaligidan hamda uning ko‘rinadigan nur sohasida fotokatalitik faollikni namoyon qilish bo‘yicha yuqori potensialga ega ekanligini ko‘rsatadi.



8-rasm. Legirlanmagan sof BT uchun $F(R)$ ning to'liq uzunligi (ichki rasm) va Tauc egri chiziqlariga (b) spektral bog'liqligi

BT namunalarining tuzilishi o'rganish uchun IQ spektroskopiya usulidan foydalanildi (9-rasm). A1 namuna sof BT, A2 namuna γ - ^{60}Co -nuranish manbai bilan $28,4 \cdot 10^6$ ren miqdorda nurlantirilgan BT, A3 namuna γ - ^{60}Co -nuranish manbai bilan $1,2 \cdot 10^6$ ren miqdorda nurlantirilgan BT, A4 namuna NaOH bilan kimyoviy ishlov berilgan BT, A5 namuna yod bilan legirlangan BT.



9-rasm. BT IQ spektroskopiya natijalari


9-rasmda BT namunalarining IQ spektroskopiya natijalari keltirilgan. NaOH bilan kimyoviy ishlov berilgan BT A4 namunasini A1 namunaga nisbatan tahlil qilinganda OH guruhining yutulish chiziqlari $3336,42 \text{ cm}^{-1}$, CH=CH guruhining yutulish chiziqlari $2919,25 \text{ cm}^{-1}$, CH₂-guruhining yutulish chiziqlari $2859,94 \text{ cm}^{-1}$, C=O guruhining yutulish chiziqlari $1730,55 \text{ cm}^{-1}$ nomoyon bo'ldi. A4 va A1 namunalarining yutulish spektrlari solishtirilganda deyarli o'zgarish qayd qilinmagan (9-rasm). Natijaga ko'ra BT NaOH bilan deyarli kimyoviy bog' hosil qilmagan. Buning sababi BT tarkibidagi OH guruhida kislota xossasi yo'qligi uchun deyarli kimyoviy jarayon ketmagan deb xulosa qilish mumkin.

Yod (I₂) bilan legirlangan BT A5 namunasini sof A1 namunaga nisbatan IQ spektroskopiya natijalari tahlil qilinganda quydagi o'zgarishlar kuzatildi. OH guruhi $3336,42 \text{ cm}^{-1}$ dan $3334,87 \text{ cm}^{-1}$ ga, CH=CH guruhi $2919,25 \text{ cm}^{-1}$ dan $2918,35 \text{ cm}^{-1}$ ga, CH₂ guruhi $2859,94 \text{ cm}^{-1}$ dan $2850,59 \text{ cm}^{-1}$ ga, C=O guruhi $1730,55 \text{ cm}^{-1}$ dan $1737,96 \text{ cm}^{-1}$ ga o'zgardi, hamda I₂ ga tegishli yutulish chiziqlari $470,77 \text{ cm}^{-1}$ barmoq

izi sohasida kuzatildi. Shuni qo‘shimcha qilib aytish mumkinki barmoq izi sohasida yaqqol o‘zgarish kuzatilgan. BT yod bilan qisman ion, qisman kovalent va deformatsion bog‘lar bilan o‘zaro bog‘langan.

BT γ - ^{60}Co nurlanish manbaida $1.2 \cdot 10^6$ ren miqdorda nurlantirilgan A3 namunasining sof A1 namunasiga nisbatan IQ spektroskopiya natijalari tahlil qilinganda OH guruhi $3336,42 \text{ sm}^{-1}$ dan $3333,6 \text{ sm}^{-1}$ ga, CH=CH guruhi $2919,25 \text{ sm}^{-1}$ dan $2921,82 \text{ sm}^{-1}$ ga, CH_2 guruhi $2859,94 \text{ sm}^{-1}$ dan $2854,98 \text{ sm}^{-1}$ ga, C=O guruhi $1730,55 \text{ sm}^{-1}$ dan $1731,98 \text{ sm}^{-1}$ sohaga surulgani kuzatildi. γ - ^{60}Co nurlanish manbaida $28.4 \cdot 10^6$ ren miqdorda nurlantirilgan A2 namunada esa quydagi natijalar qayd qilindi. OH guruhining yutilish chiziqlari $3336,42 \text{ sm}^{-1}$ dan $3325,37 \text{ sm}^{-1}$ ga, CH=CH guruhi $2919,25 \text{ sm}^{-1}$ dan $2921,45 \text{ sm}^{-1}$ ga, CH_2 guruhi $2859,94 \text{ sm}^{-1}$ dan $2853,3 \text{ sm}^{-1}$ ga, C=O guruhi $1730,55 \text{ sm}^{-1}$ dan $1730,98 \text{ sm}^{-1}$ sohaga surulgani kuzatildi. Shuningdek A2 va A3 namunalarda barmoq izi sohasida o‘zgarish kuzatilmagan. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, BT γ - ^{60}Co nurlanish manbai bilan ishlov berilganda yutilish chiziqlari surilishi inobatga olgan holda molekulyar deformatsiyaga uchragan (ya’ni nuqsonlar hosil bo‘lgan).


Dissertatsiyaning **“Paxta tolalarining elektrofizik va optik xossalarini tadqiq qilish”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida yod va KMnO_4 bilan legirlangan “Komolot-79” va “Xorazm-150” navliy PT fizikaviy xossalarini tadqiq qilish natijalar keltirilgan. KMnO_4 va yod bilan legirlagan “Xorazm-150” navliy PT VAX, shuningdek KMnO_4 bilan legirlagan “Xorazm-150” navliy PT legirlash vaqtining elektro‘tkazuvchanlikka ta’siri aniqlandi.



10-rasm. “Xorazm-150” navli paxta tolalarining legirlanmagan (1) va KMnO_4 bilan turli vaqtlarda legirlangan (2,3 va 4) namunalarining VAX. t, soat: 2-1.0; 3-3.0; 4-6.0, UB nur ostida (5), shuningdek yod bilan legirlangan (6) $T=297 \text{ K}$


borganligi kuzatildi. Ushbu hodisa suqulma kirishma moddalar diffuziyasi jarayoniga misol bo‘la oladi. Bu qattiq jisimlardagi diffuziya jarayonining eng sodda va yorqin misolidir. KMnO_4 bilan 6 soat davomida legirlangan “Xorazm-150” navliy PT $h\nu=5 \text{ eV}$ nur ostida olingan VAX kuzatildi (10-rasm 5-chiziq).

Legirlanmagan namunaga kuchlanish berganimizda xususiy o‘tkazuvchanlik xisobiga juda kichik miqdorda tok o‘tganligi (100 kuchlanishda 0,15 nA) (10-rasm 1-chiziq). Diffuziya yo‘li bilan namunaga kiritma kiritish orqali boshlang‘ich o‘tkazuvchanlikga nisbatan yo‘qori tok oqimiga erishildi. Legirlash vaqtiga bog‘liq holda toladan o‘tayotgan tok sezilarli oshganligi kuzatildi (10-rasm 2,3,4-chiziq). Quydagi 10-rasmdan ko‘rishimiz mumkinki, diffuziya vaqtini 1, 3, va 6 soat tartibda oshirish orqali namunaning elektro‘tkazuvchanligi ham chiziqiy bo‘lmagan ma’lum bir qonuniyat bo‘yicha oshib



11-rasm. KMnO_4 bilan legirlangan (1) va yod bilan legirlangan (2) “Xorazm-150” navliy PT elektro‘tkazuvchanligining haroratga bog‘liqligi.

o‘rganildi. Natijalarga ko‘ra, UB nur ($\lambda=254$ nm) bilan yoritilganda KMnO_4 bilan legirlangan namunada fototokning eksponensial o‘shishi va UB nur o‘chirilganda fotoo‘tkazuvchanlikning uzoq muddatli relaksatsiyasi kuzatildi va bu taxminan 23 minut davom etdi (12-ichki-rasm). Yod bilan legirlangan “Xorazm-150” navli PT namunasida esa yarimo‘tkazgich materiallarda kamdan kam uchraydigan noyob hodisa ya’ni manfiy fotoo‘tkazuvchanlik hodisasi kuzatildi (12-rasm).




12-rasm. Yod bilan legirlangan “Xorazm-150” navli PT namunasining FO‘ kinetikasi (ichki rasm KMnO_4 bilan legirlangan). $h\nu = 5,0$ eV, $T=300$ K

γ - ^{60}Co nuranish manbai bilan $1,2 \cdot 10^6$ ren miqdorda nurlantirilgan va yod bilan legirlangan “Komolot-79” navli PT S6 namunasi, shuningdek solishtirish maqsadida faqat yod bilan legirlangan PT S2 namunalarida elektr o‘tkazuvchanligining haroratga bog‘liqliklari o‘rganildi (13-rasm). $+20 \div 80^\circ\text{C}$ harorat diapazonida elektr toki mos ravishda S2 uchun 0,83 eV, S6 uchun 0,67 eV aktivlanish energiyasi bilan eksponensial o‘sadi.

